

## KULGI OSTIGA YASHIRINGAN ACHCHIQ HAQIQATLAR (SHAROF BOSHBEKOVNING “TEMIR XOTIN” KOMEDIYASI MISOLIDA)

**Abduraimova Dilnoza Xolmatjon qizi**

*O‘zDSMI Fmf dramatik teatr va kino aktyorligi san’ati  
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Ilmiy rahbar: Usmonov Shamsiddin Yo‘lchiboyevich**

*O‘zDSMI Fmf „Teatr san’ati“ kafedrası professori*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek san’atining yetuk darg’alaridan biri bo‘lgan yozuvchi, shoir, dramaturg Sharof Boshbekovning ijod yo‘li o‘z kasbining ustasi bo‘lgani va yozgan asarlarining mohiyatini tub ma‘nosi, o‘ylagan maqsadlari o‘rganib chiqilgan. Ya‘ni barchaning ko‘nglidan chuqur joy egallagan mashhur “Temir xotin” komediyasidagi o‘zbek ayollarining mehnati, mashaqqatiga, oilasi va bolalari uchun o‘zini fido etganligi, turmushning mushiti hammasi o‘zining go‘zal sabri bilan sabr qilib, yorining ham, bolalarning ham ishlariga, uyning supur-sidiriga ulgurib bularning evaziga hech narsa talab qilmaydigan matonatli o‘zbek ayollari talqin etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Komediya, rol, matonat, robot, tarbiya, qaror, mexr-muruvvat, asar, fabula, aktyorlik mahorati.*

Bu dunyoda har bir insonning hayoti uchun qo‘ygan oliy qadami yoki o‘zi istagan kasbga ega bo‘lishi uchun qilgan harakatlari ertasi uchun poydevor bo‘ladi. Kim hayotda kim bo‘lishini, o‘zini boshqalarning oldida mavqeyini bilish uchun butun umr harakat qiladi. Yoshlarimiz xozirda bilimga, kitob mutolaasiga uncha berilmayotganligi zimmasiga yuklatilgan vazifani to‘laqonli bajara olmayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Biz buni asr vabosi deb ham atasak adashmagan bo‘lamiz. Negaki buning asosiy sabablaridan biri bu - telefon. Hattoki o‘zimiz ham mana shu telefonga termulgan holda yoshlar tarbiyasiga o‘z kelajagimizga ham befarqmiz. To‘g‘ri telefonning ham o‘ziga yarasha foydali taraflari ham bor lekin o‘zi bilan birgalikda zararli taraflarini ham olib yuradi. Masalan, qarindosh urug‘ni mexr-oqibatli qilayotgan ham mana shu telefon bir-biri bilan kelishmovchilik chiqishiga sabab bo‘layotgan ham manashu shu telefon, yoshlarimizni bir-birlari bilan tanishtirib muqaddas deb atalmish oila ostonasiga qadam qo‘yishlariga ham sabab bo‘lmoqda va ana havas qilsa arzigulik bo‘lgan guldek oilalarning buzulshiga va buning oqibatida begunoh farzandlarning yetim qolishiga ham mana shu butun jahon bo‘ylab tarqalgan og‘u sababchi deb atash mumkin. Juda ham ko‘p vaqtini shu telefonga sarflab bola tarbiyasiga hamda turmush o‘rtog‘iga, uy-rozg‘or yumushlariga bee‘tibor bo‘lgan holda qanchadan-qancha oilalar parokanda bo‘lmoqda. Oilasiga farzandiga vaqt ajratmayotgan ota-onalar o‘z baxtini boy beryapti.

O‘sha zamonlarda matonatli ayollarimiz barcha ishlarga ulgurishgan. Zehnli va farosatli oilasi va farzandlari uchun jonini fido qiladigan o‘zbek ayollari olqishlaydigan darajada fidoiy bo‘lganlar bunga misol tariqasida Sharof Boshbekovning 80-yillarda yaratilgan “Temir xotin” asarini olishimiz mumkin. “Temir xotin” pyessasi xozirgacha sevib o‘qiladigan pyesa, sevib tomosha qilinadigan spektakl va barchaning qalbidan chuqur joy egallagan kino deb baralla

ayta olamiz.Ushbu pyesa quvnoq,qiziqarli va ma’no-mazmun jihatdan juda ham chuqur ma’noga ega ekanligini ushbu kulgili manzaralar zamirida qancha ma’no aks etganligini asarning so’ngida Qo’chqor aytgan manaloglarda ko’rishimiz mumkin.Alomat uni kuchli gipnos ta’sirida dardlarini,alamlarini yuzaga chiqarmoqchi bo’ladi va uni uddalaydi.Asarda maqsadi ham mana shu mavzuni yuzaga chiqarish edi.Alomat unga avval hech kim aytmagan hayotidagi haqiqatlarni barchasini yuziga aytadi: O’zingizga bir tashqaridan qarang qaysi zamonda yashapsiz? Oyog’ingizga ilib olgan kalishingiz qayerdan chiqqan? Yangiyo’ldanmi? ,Toshkentdanmi? Bu dunyoga kelib nima ko’rdingiz, Qo’chqor aka? “ Ikki marta Toshkentga borganman” deb maqtanasiz,odamlar “Oq dengizu Qora dengiz “ qilib yurishibdi! “ Xa endi,ular boshqacha odamlarda “ deysiz.Qanaqa, boshqacha ? Nimasi boshqacha ? Naxotki, oddiygina insoniy g’urur bo’lmasa ?! Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga xavas ham qilmay qo’ygansiz!Xavas qilaverib ,orzu qilaverib charchagansiz,xoldan toygansiz!

Qo’chqor: Nima qipti, el qatori yashayapmiz..

Alomat: Shunday deb o’zingizni ovutasiz. Qadr-qimmat-chi? Men odam emasman,lekin shularni o’ylayverib-o’ylayverib ,ichimdagi murvatlarim qizib ketyapti!Menchalik ham emasmisiz ,Qo’chqor aka ?! Biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Birovga gapingiz o’tadimi? “ Shudgorni boshla “ desa boshlayverasiz , “ xali yer qurimagan,”loyku” deyolmaysiz! To’y ma’rakalarda poygakda o’tirasiz! “ Ulug’larga” tayyorlangan dasturxonga yaqinlasholmaysiz! Joyingizni bilib o’tirishga majbursiz,chunki “mehnatkash” degan mansab bilan to’rga chiqolmasligingizni yaxshi bilasiz! Shlyapa kiyib, galstuk taqqan ketmondasta ham sizni xaqoratlashi , taxqirlashi mumkin! Alam qilmaydimi ?

Qo’chqor: Xa endi ,raxbar bo’lganidan keyin koyiydida..

Alomat: Bayram kunlari rayondagi namoyishdan bayroqcha ko’tarib o’tganingizga xursand bo’lib yuraverasiz! Majlislarda qo’l ko’tarish-u chapak chalishni bilasiz,boshqa hech baloni hal qilmaysiz! Ko’pincha o’sha majlislarda nima xal bo’layotganini ham tushunmaysiz deya achchiq xaqiqatlarni ochiqchasiga oshkor etgan.O’ylab qaraganda barcha aytilgan gaplar to’g’ri.Qo’chqor yashab o’tilgan hayotida tashqaridagilardan umuman xurmat ko’rmagan ,jamoat ishlariga xissasini qo’shmagan ,oddiy bir traktorchi sifatida gavdalantirilgan.Bu pyessaning tag zamiringa nazar solsak ko’plab oddiy aholiga ko’zgu bo’lgan.Bu asar bilan tanishib chiqqan har kim o’zining hayotiga albatta solishtirib ko’radi.Qo’chqorning hayotini-yu,Qumrining tarbiyasini ,sabrini hamda Alomatning aytgan ba’zi bir haqiqatlarini ko’zgu sifatida ayblarini ko’radi.

Asarining bosh qahramoni “Qo’chqor”- o’qimagan omi odam,xotining qadriga yetmaydi, kasbi traktorchi, ichkilikka berilgan ko’p ichishi natijasida xotini va mahalladoshlari uni daraxtga bog’lab qo’yishadi, “Alomat”,-robot juda ham puxta ishlangan dalada paxta terish uchun moslangan Olimjon tomonidan ishlab chiqilgan qoyilmaqom ixtiro,”Olimjon”-yosh olim,”Qumri”-Qo’chqorning xotini va asarning qahramoni ,haqiqiy o’zbekning matonatli ayoli timsoli va boshqa qatnashchilar, Asarning syujeti shundan iboratki, Qo’chqorboy o’qimagan, ichkilik ko’p ichadigan, mahallada ham xurmat-e’tibori yo’q inson sifatida tasvirlangan. Robot aslida juda ham ishga yaroqli kunning eng shov-shuvli yangiligi bo’ladi. U temir bo’lsada juda ham nozik did bilan ishlangan, dala ishlariga ham yarovchi topilma bo’ladi. Lekin u faqat mana shu dala ishlari uchungina xolos edida ammo u o’zbek ayolini

qiladigan ishlarini uchdan birini qilgandayoq ishdan chiqadi tutab ketadi buni zamirida esa o‘zbek ayollarimizni temirdan mustahkam ekanligi hatto haykalini qo‘ysa arziydigan sifatida ulug‘lanadi. O‘sha paytlarda ayollarimiz, qizlarimiz dala ishlariga jalb qilingan. Ularni na o‘qishi, na biror korxonada ishlashi oqlanmagan. Chet elga o‘qishga yuborishni endi aytmay qo‘yaveraylik. Ammo ishlagan, o‘qigan qizlarimiz ham bo‘lgan lekin ularni o‘zbek xalqi to‘g‘ri qabul qilmagan. Chunki sovet davridan ayol-qizlar uyda o‘tirishi lozim va ishlash erkaklarning ishi deya xotin-qizlarimiz ishlashi qoralanib kelgan. Lekin hozirgi kunda ayollarimiz uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratib berayotgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 7-mart kunida so‘zlagan nutqida xotin-qizlarimiz uchun kattadan-katta imkoniyatlar haqida gapirib o‘tdi. Jumladan, ” Biz O‘zbekistonda qanday qonun yaratmaylik, qanday islohotlarni hayotga joriy etmaylik, davlat rahbari sifatida mening ko‘z o‘ngimda avvallo munis onalarimiz, mehribon opa-singillarimiz siymosi, ularning dardu tashvishlari turadi. Siz azizlarimning oila davrasida tinch-omon, sog‘-salomat, farovon va baxtli turmush kechishingiz men uchun muhim. Yangi tartib ishlab chiqilgan bunga muvofiq magistraturada o‘qiyotgan 10 mingdan ortiq talaba qizlar uchun 68mlrd so‘mdan ziyod kontrakt pullari davlat tomonidan to‘lab berildi. 65 mingdan ko‘proq talaba xotin-qizlarga 727 mlrd so‘mga yaqin foizsiz ta‘lim krediti ajratildi. Ehtiyojmand oilalarda yashayotgan qariyb 2 ming nafar qizlar, shuningdek, mutaxassisligi bo‘yicha besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan 500 nafardan ortiq xotin-qizlar oliygohlarga alohida kvota asosida o‘qishga qabul qilindi.

Asar tahliliga qaytadigan bo‘lsak, Qo‘chqorboyni qoloqligini Robotga nikox o‘qitirib unga uylanganidan ham sezsak bo‘ladi. Robot esa uning dunyoqarashlarini, fikrlarini o‘zgartirib yuboradi. O‘zbek ayoli qiladigan ishga chidolmay robot yonib ketadi. Qo‘chqor esa sabrli, chidamli xotini bilan yarashadi. Biz nimani gapirdik? O‘zimiz bilmagan xolda dramaturg o‘z terminini ochish uchun terib olgan voqealar tizimini, mantiqli va yaxlitlikka olib kelingan fabulani aytib berildi. U ishonarli, ijrochilar uchun tasavvur qilishga, baxolashga va maqsadli xarakter qilishga asos bor. Asar fabulasi – voqealar tizimini aniqlashga va uning g‘oyasini anglashga sharoit yaratadi. Qiziqarli voqealar tizimi avvalo, asar g‘oyasini anglatadi.

Ushbu asarni yozuvchi juda ham qiziqarli tarzda yozib qoldirgan va uni sahnaga qo‘yib obrazlarni mahorat bilan ijro etgan aktyorlar ham olqishga loyiq. Chunki asar qanchalik sermazmun bo‘lmasin uni tomoshabinlarga maromiga yetkazib ijro etadigan bu aktyorlarimiz bo‘ladi. Sahna san‘atining kechagi kuni, bugungi ahvoli va ertangi istiqboli haqida uzluksiz izlanishlar olib borgan Stanislavskiy 60 yoshga to‘lganida “San‘atdagi hayotim” kitobini yozdi. Bu kitob teatr san‘ati arboblari yozgan memuarlar orasidagi tengi yo‘q tarixiy, ilmiy-nazariy asar deb baxolandi. Teatr san‘ati maasalalarini ham qamrab olgan bu kitob “Aktyorlik mahorati” fanining nazariy asosi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

San‘at fidoiysi, yozuvchi, dramaturg, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, ”Mehnat shuhrati” ordeni sohibi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Sharof Boshbekov 1951-yilning 4-yanvarida Samarqand shahrining Bulung‘ur tumanidagi G‘ubir qishlog‘ida tavallud topgan . 1974-yili San‘at insitutining musiqali aktyorlik bo‘limini tugatdi. Toshkentdagi “Muqimiy” musiqali teatrida, Gulistondagi teatrdagi aktyor sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Sharof Boshbekovning “Taqdir eshigi”, ”Eski shahar Gavroshlari”, ”Temir xotin” kabi asarlari teatrlar repertuarlaridan munosib o‘rin egallagan. ”Temir xotin”

komediyasi respublikalarning barchasida sahnalashtirilgan. Boshbekov kino sohasida ijod qildi. Uning snariylari asosida “Yuzsiz”, “Tilla bola”, “Maruf va Sharif” va “Masxaraboz” kabi filmlar ham sur’atga olingan. Ayniqsa, “Charxpalak” teleseriali ham mashhurlikka erishgan. Sharof Boshbekov 2022-yilning 26-yanvar kuni 71 yoshida vafot etadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, asarning muallifi bu komediyadan juda ham ulkan mahorat va ta’sirli, chuqur ma’nolar bilan kulguli janrda tomoshabinga yoritib bergan. Qumri obrazi juda chiroyli talqinda tasvirlangan. Nafaqat Qumri balki barcha o’zbekim ayollari oilada ham aslida shunday dasturxonga eng oxiri o’tirib, eng birinchi chiqib ketadigan ham o’zbek ayoli, oilada hammadan keyin uxlab, hammadan oldin uyg’onadigan ham o’zbek ayoli, oiladagi hammaning ko’ngliga yo’l topib o’zining ko’ngli yarim qolib ketadigan ham o’zbek ayoli, oiladagi hammaning yarasiga malham bo’lib, o’z yarasiga tuz bosgan ham o’zbek ayolidir, oilasida hammaga yetishib, o’ziga yetmay qoladigan ham, oilasida hammaga vaqt ajratib, o’zigagina vaqt yetmaydigan ham, ro’zg’or kamlarini o’z kamlaridan ancha yuqoriga qo’yadigan ham bizning baxtiyor oila dissertasiyasini yoqlagan o’zbekim ayollaridir. O’zbek ayolining fidoiyligini qiyosi, baxosi yo’qdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sharof Boshbekov, “Temir xotin”, Jiddiy komediya,
2. Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 7-mart kunidagi nutqidani.
3. Ma’mur Umarov, Toxir Yo’ldoshev “Rejissyorlik va aktyorlik san’ati asoslari,” ABU MAT-BUOT-KONSALT” Toshkent - 2016
4. Ma’mur Umarov, Toxir Yo’ldoshev “Rejissyorlik va aktyorlik san’ati asoslari,” ABU MATBUOT-KONSALT” Toshkent - 2016
5. UzReport.news.